

## TAFAKKUR FENOMENINING FALSAFIY-GNOSEOLOGIK ASOSLARI

Esemuratov Abdimurat Esemuratovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, mustaqil tadqiqotchi

Ataxanova Gulnar Orinbaevna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, gumanitar va tillar kafedrasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18833095>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi tafakkur fenomenining falsafiy-gnoseologik asoslari tarixiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Antik davr mutafakkirlari Suqrot va Aristotel, Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino, shuningdek turkiy mutafakkir Yusuf Xos Hojibning tafakkurga doir qarashlari qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tafakkur rivoji bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lib, uning asosini mantiqiy dalillash va refleksiya tashkil etadi. Ushbu tarixiy meros zamonaviy pedagogikada tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, gnoseologiya, mantiq, Sokratik metod, aql bosqichlari, refleksiya, tanqidiy fikrlash.

**Аннотация:** В данном тезисе анализируются философско-гносеологические основы феномена мышления с историко-педагогической точки зрения. Проведен сравнительный анализ взглядов античных мыслителей Сократа и Аристотеля, восточных ученых Абу Насра аль-Фараби и Абу Али ибн Сины, а также тюркского мыслителя Юсуфа Хас Хаджиба на природу мышления. Результаты исследования показывают, что развитие мышления носит поэтапный характер, его основу составляют логическая аргументация и рефлексия. Данное историческое наследие служит теоретико-методологической основой формирования критического и творческого мышления в современной педагогике.

**Ключевые слова:** мышление, гносеология, логика, сократический метод, ступени разума, рефлексия, критическое мышление.

**Abstract:** This thesis analyzes the philosophical and epistemological foundations of the phenomenon of thinking from a historical-pedagogical perspective. A comparative analysis of the views of ancient thinkers Socrates and Aristotle, Eastern scholars Abu Nasr al-Farabi and Abu Ali ibn Sina, as well as the Turkic thinker Yusuf Khass Hajib on the nature of thinking is carried out. The research results show that the development of thinking has a stage-by-stage character, its basis is logical argumentation and reflection. This historical heritage serves as a theoretical and methodological basis for the formation of critical and creative thinking in modern pedagogy.

**Keywords:** thinking, epistemology, logic, Socratic method, stages of intellect, reflection, critical thinking.

Tafakkur – inson borlig'ining asosiy belgisi. Aynan fikrlash qobiliyati tufayli inson o'zligini anglaydi, borliqni idrok etadi va uni o'zgartiradi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, tafakkur shaxs kamolotining markaziy omili hisoblanadi. Ammo uning tabiati, paydo bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlari hanuzgacha tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelayotgan masalalardandir.

Ushbu tezisdagi tafakkur fenomenining falsafiy-gnoseologik asoslari tarixiy-pedagogik jihatdan yoritiladi. Antik davr mutafakkirlari Suqrot va Aristotel, Sharq allomalari Abu Nasr

Forobiy va Abu Ali ibn Sino, shuningdek turkiy mutafakkir Yusuf Xos Hojibning tafakkurga doir qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va germinenvtik metodlardan foydalanilgan.

Suqrot (er.avv. 470–399) o'zining savol-javob usuli bilan tafakkurni uyg'otishning o'ziga xos namunasini yaratdi. Uningcha, haqiqat tayyor holda berilmaydi, balki izlanuvchan savollar orqali kashf etiladi. Bu usul o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. Suqrotcha yondashuv bugungi kunda ham evristik ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Aristotel (er.avv. 384–322) esa tafakkurni mantiq qonunlari asosida tahlil qilish imkonini yaratdi. U mantiq faniga asos solib, induksiya va deduksiya usullarini ilmiy muomalaga kiritdi. Sillogistik xulosa chiqarish qoidalari orqali fikrning haqiqiyiligini tekshirish mexanizmini taklif etdi. Aristotelgacha mantiqiy tafakkur tizimli o'rganilmagan edi.

Sharq falsafasida tafakkur masalasi yangicha talqin kasb etdi. Forobiy (870–950) aql taraqqiyotini bosqichma-bosqich izohladi. Uning ta'limotida quvvatdagi aql – bilimlarni qabul qilish qobiliyati, faol aql – ularni qayta ishlash jarayoni, hosil bo'lgan aql – yuksak darajadagi tafakkur mahsuli sifatida talqin etiladi. Bu g'oyalar bugungi kunda ham kognitiv rivojlanish nazariyalari bilan uyg'unlashadi.

Ibn Sino (980–1037) tafakkurni dalil va isbot bilan bog'lab o'rgandi. Uning fikricha, har qanday fikr ishonchli asosga ega bo'lmasa, u gumondan nariga o'tmaydi. Haqiqiy bilimga erishish yo'li – fikr bilan dalilning uyg'unligidadir. Bu qarashlar zamonaviy ilmiy tadqiqot metodologiyasining asosiy talablaridan biri – asoslanganlik tamoyili bilan hamohangdir.

Yusuf Xos Hojib (XI asr) «Qutadg'u bilig» asarida inson tafakkurining ijtimoiy hayotdagi o'rniga alohida e'tibor qaratdi. Unda inson o'z qarorlarini puxta o'ylab, oqibatlarini chamalab qabul qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu esa zamonaviy pedagogikada refleksiya – o'z fikrini tahlil qilish va baholash qobiliyatining dastlabki talqinlaridan biridir.

Xulosa qilish mumkin: tafakkur fenomeni turli madaniyatlarda, turli davrlarda o'ziga xos talqin etilgan. Antik faylasuflar uning mantiqiy va dialektik jihatlarini, Sharq allomalari gnoseologik va ma'naviy asoslarini, turkiy mutafakkirlar esa amaliy va reflektiv tomonlarini yoritgan. Bu qarashlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to'ldiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashda mazkur tarixiy meros muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois uni chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardandir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Вард Фарнсворт. «Метод Сократа: Искусство задавать вопросы о мире и о себе». – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2023. Стр. 362.
2. Стяжкина Н. И. История логики / под ред. – М.: Наука, 1981. – 432 с.
3. Ибрагим Т. К. Трактат аль-Фараби «О разуме» (Fi al-'aql): Перевод и исследование. *Ориенталистика*, 2(4), 2019. Стр. 954–982.
4. Ahmadjonov, M. «Abu Ali Ibn Sino» bugungi kun yoshlarining ma'naviyat maktabi sifatida. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 3(23), 2024. 245-b.
5. Sodiqova, S. IBN SINONING AQLIY VA AXLOQIY TALIMOTI. *Наука и инновация*, 3(54), 2025. 26–29.